

## SO‘ZNI TOPIB ISHLATING 8-BO‘LIM

**Najmiddinova Zamira Shaxopitdinovna**

*Namangan viloyati Yangi Namangan tumani*

*69-umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu dars ishlanmada 2-sinf o‘quvchilari uchun ona tili va o‘qish savodxonligi fanidan „So‘zni topib ishlating“ mavzusini o‘qitish texnologiyasi interfaol usullar yordamida ko‘rsatib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ona tili, o‘qish savodxonligi, so‘z, nutq, interfaol usullar, didaktik o‘yinlar, zamonaviy texnologiyalar, kitobxonlik, chiroyli yozuv...

**Dars maqsadi: Ta’limiy:** O‘quvchilarni „So‘zni topib ishlating“ mavzusining mazmun-mohiyati bilan tanishtirish, ularda to‘g‘ri va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish.

**FK 1:** *o‘rganilgan mavzular doirasida bayon qila oladi va bolalar yozuvchilari, ularning asarlari nomini yoza oladi.*

**Tarbiyaviy:** so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llash, uni inson hayotidagi ahamiyatini tushuntirish, kitobxonlik madaniyati o‘rgatish.

**TK 3:** *shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish.*

**Rivojlantiruvchi:** O‘quvchilaning og‘zaki nutqini o’stirish, ziyraklik va jonkuyarlik fazilatlarini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars usuli:** “Chunki”, “Zukko zehnli”, “Husnixat”, “Kim topqir”, “Xotira mashqi”...

**Dars jahozi:** O’tgan darsdagi rasmlar, multimediali ilova, slayd taqdimoti.

**Dars bosqichlari:**

Tashkiliy qism – 2 daqiqa

O‘tilgan darsni so‘rash – 8 daqiqa

Yangi mavzu – 15 daqiqa

Mustahkamlash – 15daqiqa

O‘quvchilar bilimini baholash – 3 daqiqa

Uyga vazifa – 2 daqiqa

### **Darsning borishi:**

**I.Tashkiliy qism:** Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi. O‘quvchilar o‘rtasida psixologik iqlim yaratiladi.

O‘quvchilar 3 guruhga bo‘lib olinadi.

**1-guruh: “Topqirlar”;** **2-guruh: “Bilimdonlar”;** **3-guruh: “Zukkolar”**

Darsda o‘quvchilarga sirli orol maketi ko’rsatiladi va unga sayohat uysushtirgan holda o‘quvchilar bilan yangi mavzu tashkil etiladi.

O‘quvchilar quyidagicha rag’batlantirilib boriladi.



**II.O‘tilgan mavzu va uyga vazifani so‘rash:** Bunda o‘tilgan mavzu bo‘yicha “**Chunki**” usuli orqali savol-javob tashkil etiladi.Har bir guruh 1tadan savol tanlaydi va javob beradi.

**1-guruh: “Topqirlar”guruhiiga:** 1.Devorni tepib buzishdan odam qandaydir foyda oladimi?

**2-guruh: “Bilimdonlar” guruhiiga:** 2. Devorning egalari devor buzilgandan so‘ng nima qilishadi, deb o‘ylaysiz?

**3-guruh: “Zukkolar” guruhiiga:** 3 Bola nima yomonlik qildi va uning ketidan qanday yomonlik keldi?

**1-guruh:** “**Topqirlar**”**guruhiba:**4. Siz hayotingizda shunga o‘xshash holatlarni

kuzatganmisiz?

**2-guruh:** “**Bilimdonlar**” **guruhiba:**5. Hikoyadagi kishi uyda och bolasi bo‘la turib, ikkala nonni ham ko‘chadagi begonaga berib to‘g‘ri qildimi?

**3-guruh:** “**Zukkolar**” **guruhiba:**6. Nima deb o‘ylaysiz, u nima uchun shunday qildi?

**III.Yangi mavzu bayoni:** So‘zning ham mazasi, ta’mi bo‘ladimi? U axir non emas-ku... yeyilsa, yoki choy kabi ichilsa? Hatto so‘zni ko‘rib ham bo‘lmaydiku, deyayotgandirsiz. So‘zning ta’mi deyilganda uning ma’nosidagi nozik tomonlari nazarda tutiladi. Buni she’rga so‘z tanlash misolida tushuntirib beraman.

Deylik, “Tong” haqida shunday

**Quyosh osmonga chiqdi,**

**Qushlar sayray boshladi.**

**Teraklar tebranishdi,**

**Gullarga shabnam tushdi.**

Mana shu “to‘rtlik”ni, ya’ni fikrni ko‘ngilga yaqinlashtirish uchun oddiy so‘zlarni (shu o‘rin uchun) “ta’mli” so‘zlarga almashtiramiz.

Masalan, mana bunday:



Quyosh kului osmonda

Qushlar kuylay boshladi.

Qarsak chaldi teraklar,

Gullar ko‘zin yoshladi.

**“Mashq daftari” bilan yozma mashqlarni bajariladi. Bunda “Husnixat” usulidan foydalanamiz.**

### 3.3. Daftardagi mashqni bajaring.

1. Rasmlarga qarang. Ularning tagidagi gaplarni o‘qing. Gaplarning qaysi birini siz ishlatgan bo‘lardingiz?

- |   |  |
|---|--|
| 1) Qalamingni ber.                        | 2) Qalamingni berib tur, iltimos.        |
| 3) Oyi, men keldim.                       | 4) Assalomu alaykum, oyijon, men keldim. |
| 5) Qornim to‘ydi, ket dim.                | 6) Rahmat, ovqat shirin bo‘libdi.        |
| 7) Tur o‘rningdan, maktabga kech qolasan! |  |
| 8) Bolajonim, turaqol, nonushta qilamiz.  |  |

#### 1. Quyidagi so‘zlar qanday holatlarda ishlataladi?

iltimos

rahmat

kechirasiz

uzr

marhamat

salomat bo‘ling

Bo‘sh o‘rinlarga yuqoridagi so‘zlardan mosini yozing.

\_\_\_\_\_ , o‘chirg‘ichingni berib tur.

\_\_\_\_\_ , soat necha bo‘lganini bilmaysizmi?

Keling, \_\_\_\_\_ , o‘tiring.

Tabrik uchun \_\_\_\_\_ !

\_\_\_\_\_ , bezovta qilmadimmi?

#### 2. Quyidagi so‘zlarga mos keluvchi mosini topib, moslashtiring.

qo’sh

avj

saf

a’yonlar

ne

yuqori nuqta

nima

amaldorlar

ikkita

qator

**Dam olish daqiqasi: Bunda o‘qvchilar ko‘zlari bog‘liq holda meva nomini ushlab ko‘rib topadilar.**

## **“Kim topqir?” o‘yini**



### **1.2. Daftardagi mashqni bajaring.**

1.3. Quyidagi iboralarni eshitganmisiz? Ularni qachon ishlatalamiz?

Qo‘lingiz dard ko‘rmasin Baraka toping!

Ko‘rmaganday bo‘lib keting

### **IV.Mavzuni mustahkamlash:**

**“Zukko zehnli” usuli orqali** quyidagi matn haqida o‘quvchilarning fikri so‘raladi.

E’tibor bergan bo‘lsangiz, “mashqmiz”ga ancha rang, shira kirdi. Bu mashqda birgina holat – gullarning nega yig‘layotgani aytilmagan. Endi buning sababini “to‘qib”, mashqni yakunlab qo‘ysak ham bo‘ladi. Masalan, mana bunday:

**Gullar ona quyoshning**

**Zamindagi bolasi.**

**Yig‘lashganin boisi,**

**Sog‘inishgan onasin...**

So‘zning mazasi, ta’mini his qilish har kimning o‘zida qolgan. Siz qancha ko‘p badiiy kitob o‘qisangiz, she’r va qo‘schiqlar yod olsangiz, obrazli aytganda, so‘zlar ummonida suzsangiz, shuncha tez va ko‘p so‘zlarning “ta’mi“ni his qilasiz, ta’sir

kuchini payqaysiz.

**Abdurahmon Akbar****“Xotira mashqi” didaktik o‘yini.**

1. Sarlavhani o‘qiganingizda nima xayolingizga keldi?
2. Hayotda nimaning ta’mi bo‘ladiyu, nimaning ta’mi bo‘lmaydi?
3. O‘ylab ko‘ring-chi, qanday ta’m sizni xursand qiladi va aksincha?
4. Nima uchun muallif she’r deyish o‘rniga “mashq” degan?
5. So‘zning ta’mini yaxshiroq sezish uchun nima qilishingiz kerak ekan?

**V. O’quvchilar darsdagi ishtiroki va to’plagan rag’batlari asosida baholanadi.** G‘olib guruh aniqlanadi. Mavzu xulosalanadi.

**VI. Uyga vazifa:** Matn mazmuni bilan to’liq tanishish va savollarga javob yozib kelish.